




TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar-may)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga sog'lom raqobat muhitida sifatli va raqobatbardosh hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, o'z vaqtida xaridorlarga etkazilishida bir qator qulayliklar tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Shuningdek, korxonalar va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda, xususan, davlat soliqlarining ma'lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo'lib to'lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo'yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o'sishiga xizmat qiladi.

2021- yil yanvar-may oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 2024,7 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 401,3 mln. AQSh dollariga yoki 24,7 %ga ko'paydi.






TSAda eksport hajmi 789,4 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati – 41,7 %) va import hajmi 1235,3 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati – 15,8 %) yetdi. Hisobot davrida 445,9 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.


TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSh dollari)

2020- yil

2021- yil



TASHQI SAVDO AYLANMASINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2020-yil yanvar-mayga nisbatan, %da)





TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ULUSHI YUQORI BO'LGAN DAVLATLAR (2021- yil yanvar-may, mln. AQSh dollari)


Davlatlar nomlari	TSA	Eksport	Import	Ulush, % da
Turkiya	453,1	368,4	84,6	22,4
Qozog'iston	412,7	72,2	340,5	20,4
Rossiya Federatsiyasi	390,0	113,6	276,4	19,3
Xitoy	237,8	39,8	198,0	11,7
Koreya Respublikasi	66,7	3,1	63,6	3,3
Braziliya	60,6	0,0	60,6	3,0
Ukraina	39,5	17,9	21,7	2,0
Afg'oniston	37,4	37,4	0,0	1,8
Germaniya	34,2	5,4	28,8	1,7
Qirg'iz Respublikasi	26,5	17,2	9,3	1,3
Tojikiston	24,8	23,0	1,8	1,2
Qatar	24,7	24,7	0,0	1,2
Italiya	20,7	4,0	16,7	1,0
Niderlandiya	15,4	10,0	5,4	0,8
Irlandiya	13,7	0,0	13,7	0,7
Ozarbayjon	12,8	2,4	10,3	0,6
Singapur	12,5	12,1	0,4	0,6
Hindiston	12,0	3,8	8,2	0,6
Litva	11,4	0,3	11,1	0,6
Polsha	10,6	5,4	5,2	0,5



Viloyatda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2021- yilning yanvar-may oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 45,5 %ni hamda tashqi savdo aylanmasi 2020- yilning shu davriga nisbatan 121,5 %ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2020- yilning yanvar-may oylarida 53,3 %ni, 2021- yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 54,5 %ni tashkil qilgan bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 127,5 % ni tashkil etdi.

TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHLARI (2021- yil yanvar-may, % hisobida)






TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2021- yil yanvar-may, mln. AQSh dollari)

MDH davlatlaridan Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo'shni davlatlardan tashqari) esa Turkiya, Afg'oniston, Singapur va Qatar bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko'rish mumkin.

TSAda eng yuqori ulush Turkiya, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi va Xitoy davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.






TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-may)

Hozirga kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qoʻllab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy koʻmak berilmoqda.

2021-yil yanvar-may oylari yakuni bilan 789,4 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2020- yilning shu davriga nisbatan 141,7 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,5 %ni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (71,8 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (11,2 %), turli xil tayyor buyumlar (7,5 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilgʻidan tashqari) (4,3 %), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (3,0 %), shuningdek, mashina va transport asbob-uskunalari (1,6 %) guruhlariga toʻgʻri kelmoqda.





MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-may)

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	789,4	254,0	535,4	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	88,1	50,3	37,8	11,2	19,8	7,1
Ichimliklar va tamaki	1,0	1,0	0,1	0,1	0,4	0,01
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	33,7	19,2	14,5	4,3	7,6	2,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,9	-	0,9	0,1	-	0,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	23,4	15,1	8,3	3,0	5,9	1,5
Sanoat tovarlari	567,1	103,7	463,4	71,8	40,8	86,6
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	12,3	7,8	4,5	1,6	3,1	0,8
Turli xil tayyor buyumlar	59,0	56,4	2,6	7,5	22,2	0,5
Xizmatlar	3,9	0,5	3,4	0,5	0,2	0,6






MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O‘SISH SUR‘ATLARI (2021- yil yanvar-may)

2021-yilning yanvar-may oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan, ichimliklar va tamaki hamda nooziq-ovqat xom-ashyosidan tashqari barcha tovar va xizmatlarda o‘shish kuzatildi.

Tarkibi	2020- yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	141,7	135,7	144,8
shu jumladan:			
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	120,3	103,1	154,3
Ichimliklar va tamaki	96,5	98,0	77,0
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	90,5	137,8	62,2
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	155,7	27,0	2 m.
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	132,0	125,8	144,8
Sanoat tovarlari	152,6	157,3	151,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	101,1	127,9	73,9
Turli xil tayyor buyumlar	146,8	145,5	182,0
Xizmatlar	121,1	89,7	127,9



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-may)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Xitoy, Afg'oniston, Qatar va Tojikiston hamkor davlatlaridan jami eksport hajmi 679,2 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy eksport hajmining 86,0 %ini tashkil qiladi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 59,5 mln. dollar qiymat ega 144,6 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2020- yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 17,6 % o'sgan, naturada – 34,8 % ko'paygan, Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 43,8 mln. AQSh dollariga teng 126,6 ming tonnadan ortiq sabzavot (qiymatda 31,8 %ga o'sgan), shuningdek 11,5 mln. AQSh dollari qiymatidagi 13,7 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda o'zgarish sur'ati 87,7 %ga teng).

2021- yil yanvar-may, mln. AQSh dollari



Meva va
rezavorlar
13,7 ming
tonna
11,5 mln.
AQSH dollari



Uzum
1,5 ming
tonna
1,5 mln.
AQSH dollari



Yeryon-
g'oqlar
1,9 ming
tonna
2,4 mln.
AQSH dollari



Sabzavotlar
126,6 ming
tonna
43,8 mln. AQSH
dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2021- yilning yanvar-may oylarida meva-sabzavotlarning eksport hajmi 55,3 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, jami eksport hajmining 7,0 %ini tashkil qiladi.




TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2021- yil yanvar-may)

Mamlakatimizda faoliyat yuritmayotgan korxonalar va tashkilotlar holati o'rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-may oylari mobaynida import hajmi 1235,3 mln. AQSh dollari (2020- yilning shu davriga nisbatan o'zgarish sur'ati 115,8 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (26,2 %), sanoat tovarlari (18,9 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (19,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (15,1 %) hamda kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (7,5 %) hisobiga to'g'ri keldi.





**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA
XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-may)**

Tarkibi	mln. AQSh dollari			umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	1235,3	667,4	567,9	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	186,2	88,0	98,3	15,1	13,2	17,3
Ichimliklar va tamaki	3,2	3,0	0,2	0,3	0,4	0,04
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	236,8	225,2	11,6	19,2	33,7	2,0
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	46,5	46,0	0,6	3,8	6,9	0,1
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	37,1	35,0	2,1	3,0	5,2	0,4
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	92,7	26,9	65,8	7,5	4,0	11,6
Sanoat tovarlari	232,9	165,4	67,4	18,9	24,8	11,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	323,3	60,6	262,7	26,2	9,1	46,3
Turli xil tayyor buyumlar	59,6	11,7	47,9	4,8	1,8	8,4
Boshqa tovarlar	4,8	3,4	1,4	0,4	0,5	0,3
Xizmatlar	12,3	2,3	10,0	1,0	0,3	1,8

Importning eng katta ulushi, nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (33,7 %) va sanoat tovarlari (24,8 %) MDH mamlakatlariga to‘g‘ri kelsa, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (46,3 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (17,3 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.




MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2021- yil yanvar-may, % hisobida)

Tarkibi	2020- yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	115,8	116,9	114,6
shujumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	150,6	88,3	4,1 m.
Ichimliklar va tamaki	2,2 m.	2,3 m.	156,2
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	114,6	125,0	43,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	98,2	97,9	138,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	117,2	132,8	40,0
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	136,1	157,4	128,9
Sanoat tovarlari	126,6	139,1	103,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	98,4	91,8	100,0
Turli xil tayyor buyumlar	113,9	106,5	115,8
Boshqa tovarlar	81,4	2,4 m.	32,2
Xizmatlar	72,9	101,0	68,5





VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-aprel)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Braziliya va Germaniya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 1052,5 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 85,2 %ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi**
Tel.:(71) 202-86-59